

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMBIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	




O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar	421
M.A.Saparova , talaba	



YEVROPA TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKIDAN INVESTITSIIYA JALB QILISH IMKONIYATLARI

Mamatov Bahromjon Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Investitsiyalar va moliya bozori" kafedrasi dotsenti, PhD



Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlari, shuningdek, xorijiy moliya institutlari orqali arzon kapital jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik qilish, mamlakat iqtisodiyotiga xususan infrastruktura dasturlariga kapital jalb qilish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kapital, investitsiyalar, investitsion muhit, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, kredit liniyalari, yashil moliyalashtirish.

Abstract: This article analyzes the scientific views of domestic and foreign scientists on the subject, as well as the possibilities of attracting cheap capital through foreign financial institutions. Scientific conclusions and practical proposals are presented on cooperation with the European Bank for Reconstruction and Development, ways to attract capital to the country's economy, especially infrastructure programs.

Key words: Capital, investments, investment climate, foreign direct investments, portfolio investments, credit lines, green financing.

Аннотация: В данной статье анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных ученых на данную тему, а также возможности привлечения дешевого капитала через иностранные финансовые институты. Представлены научные выводы и практические предложения по сотрудничеству с Европейским банком реконструкции и развития, путем привлечения капитала в экономику страны, особенности инфраструктурных программ.

Ключевые слова: Капитал, инвестиции, инвестиционный климат, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, кредитные линии, зеленое финансирование.

KIRISH

Sanoat va kapitalning baynalminallashuvi, milliy xo'jaliklarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan ta'sirining sezilarli darajada ortishi, turli mamlakatlarda ishbilarmonlik konyukturasi bog'liqligining darajasi ortishi – bularning barchasi, jahon xo'jaligining davlatlararo boshqaruv mexanizmini shakllantirishni talab etadi. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning institutsional boshqaruv tizimini shakllantirishda aynan xalqaro moliya institutlarining o'rni muhim hisoblanadi.

Jahonning yetakchi moliya institutlaridan biri Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishi O'zbekistonda, qadim va navqiron Samarqand shahrida o'tkazilayotganligi ham bejiz emas. YeTTB o'tgan 2022-yilda O'zbekistondagi 26 ta loyihani moliyalashtirish uchun 900 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'larini yo'naltirdi. Mazkur ko'rsatkichning o'zi ham Yangi O'zbekistonga yangi investitsiyalar borasidagi o'zaro ishonchga asoslanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonining 21-maqsadining amalga oshirish mexanizmiga muvofiq: "... Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5-yil uchun bir nechta ssenariyli makroiqtisodiy prognoz (makromodel)ni ishlab chiqish. Bunda:

- yalpi ichki mahsulotni 100 mlrd AQSh dollariga yetkazish va aholi daromadlarining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotga ta'sirini baholash;
- tashqi bozorlardagi o'zgarishlarni prognozlashtirish va iqtisodiy o'sishga tashqi omillar ta'sirini yumshatish;



- hududlar va tarmoqlarning iqtisodiy o'sishdagi hissasini aniqlash orqali "o'sish nuqtalari"ni belgilash"¹ kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro manfaatli hamkorlik masalasiga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada xalqaro moliya institutlari bilan ham o'zaro hamkorlik asosida milliy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish masalasiga ustuvor maqsad sifatida yondashilmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik, qulay investitsion muhit tufayli xalqaro moliya institutlari ham mamlakatimiz bilan hamkorlik qilishdan mamnun ekanliklarini yashirmayapti.

ADABIYOTLAR SHARHI

A. Sh. Bekmurodov fikricha, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to'g'ridan to'g'ri eksport qilish va shu bilan karxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy sho'ba korxonasiga aylanadi ^[2].

A. V. Vaxobov esa to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta'kidlaydi ^[3].

A. S. Azizov to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo'jalik faoliyati ustidan qisman yoki to'liq nazoratni ta'minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta'kidlaydi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda konsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bank tomonidan O'zbekistonning 2023 va 2024-yillardagi o'sish ko'rsatkichlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6,5 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Mazkur ko'rsatkich dunyodagi murakkab siyosiy va iqtisodiy vaziyat sharoitida har tomonlama ijobiy ko'rsatkichdir. Shu sababli ham Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O'zbekistondagi izchil islohotlarni har tomonlama faol qo'llab-quvvatlamogda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'z faoliyatini boshlangandan buyon 180 milliard dollarlik 6500 ta loyihani moliyalashtirishgan bo'lsa, O'zbekiston bank a'zoliciga qabul qilinganidan bugungi kunga qadar 4 milliard AQSh dollariga teng 129 ta loyihani amalga oshirib kelmoqda. Bunda yashil energetika, transport, bank tizimi, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jalik, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish kabilarda YeTTBning ishtiroki ko'p tomonlama samara keltirmogda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kichik va o'rta biznesni faol qo'llab-quvvatlash tarafdori sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu borada tijorat banklariga kredit liniyalari ajratish orqali kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish amaliyotlari bir necha yillardan buyon mamlakatimizda qo'llanib kelinmoqda. Xususan biznes subyekti mavjud va biznesni yuritish bo'yicha kamida ikki yillik tajribaga hamda yangi biznes loyihasi mavjud ayol tadbirkorlar uchun biznesni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirish borasida dasturlarni amalga oshirilmoqda. Bunda amalga oshirilayotgan loyihalarning 49 foizi xususiy biznes loyihalari ekanligi alohida e'tiborimizni tortadi. Chunki yuqori samaradorlik kasb etuvchi xususiy biznes loyihalariga xorijiy kapital jalb qilinayotganligi istiqbolda global moliya bozoriga chiqishlarida muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektorni rivojlantirishga va milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirib borishga intilayotgan Yangi O'zbekiston ustuvor maqsadlari Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining maqsadlariga ham to'la mos keladi. Yillik yig'ilish va biznes-forum yakunlari o'laroq, xususiy biznesni moliyalashtirish bo'yicha qator loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha bitimlarning imzolanganligi ham natijaning yuqoriligini o'zida namoyon qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish nuqtayi nazaridan yashil energetikani rivojlantirish loyihalari YeTTB tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Birlashgan arab amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan Samarqand, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida quyosh foto elektr stansiyalarini ishga tushirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarga bank tomonidan 205 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilgan. Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasiga Buxoro viloyatidagi ikkita shamol elektr statsiyasini ishga tushirish bo'yicha loyiha uchun esa 520 million AQSh dollari miqdori kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Alohida qayd etish lozimki, mazkur loyihalar bo'yicha majburiyatlar loyihani amalga oshirayotgan xorijiy kompaniyalar zimmasidadir. O'zbekiston tomonining majburiyati esa davlat-xususiy sheriklik nuqtayi nazaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasini kafolatli sotib olishni nazarda tutadi. 2030-yilga borib jami elektr energiyasining 40 foizi qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi bo'yicha strategik maqsadlar belgilanganligini shu ham shu o'rinda ta'kidlashimiz lozim.


1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"-gi 60-sonli farmoni.



1-rasm: YeTTB O'zbekistonda amalga oshirayotgan loyihalar²

Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi va ularni xususiyashtirishga tayyorlash masalasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Sanoatqurilishbank, Asakabank bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda oddiy aksiyalarga ayirboshlash sharti bilan kredit liniyalari taqdim etilganligi istiqbolda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Sanoatqurilishbank aksiyadoriga aylanishini kafolatlaydi. Natijada milliy tijorat banklarining ham raqamli, ham mulkdorlar o'zgarishi bo'yicha transformatsiyasi istiqbolda yuqori samaradorlik orqali global raqobatga kirisha olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Ipak yo'li bank, Universalbank, TBC bank, Davrbank, Hamkorbank kabilarning resurs bazasini mustahkamlash borasidagi hamkorlik aloqalari ham kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Umuman raqamli iqtisodiyot ko'lamini kengaytirish istiqbolda xarajatlarni minimallashtirish orqali biznes va hukumat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'tkazilayotgan bank boshqaruv kengashi yig'ilishi va biznes forumda dunyoning 71 mamlakatidan ikki yarim mingdan ortiq hukumatlar, xalqaro moliya institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillari, iqtisodchilar va tahlilchilar, investorlar va ishbilarmonlarning ishtirok etayotganligi mamlakatimiz, turizm imkoniyatlarini keng targ'ib qilishda ham o'ziga xos vositaga aylanmoqda.




2-rasm: YeTTB O'zbekistonda amalga oshirayotgan loyihalar, mln yevro³

² <https://www.ebrd.com/where-we-are/uzbekistan/data.html>

³ <https://www.ebrd.com/where-we-are/uzbekistan/data.html>



Yillik yig'ilish doirasida o'tkaziladigan biznes forumda xalqaro savdoga ko'maklashish, energiya xavfsizligini ta'minlash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish, rivojlanayotgan bozorlarda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, moliyaviy infratuzilmani modernizatsiyalash, YeTTB "Yashil shaharlar" dasturini amalga oshirish, YeTTBning "Mintaqaviy iqtisodiy istiqbollar" mavzusidagi asosiy makroiqtisodiy tadqiqoti va boshqalar bo'yicha panel munozaralar o'rin olganligi e'tiborimizni tortdi.



3-rasm: YeTTB tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar tarkibi⁴

Darhaqiqat kelajak iqtisodiyoti – bu yashil iqtisodiyotdir. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tashabbuslari va O'zbekistonda yashil loyihalarni faol moliyalashtirayotganligi e'tiborga molik. O'tkazilgan tadbirlar doirasida, Nukus shahrida ham shamol elektr stratsiyasini qurish va ishga tushirish loyihasini moliyalashtirish uchun 19 million AQSh dollari miqdorida ACWA Power kompaniyasiga kredit mablag'lari ajratilishi bo'yicha bitim imzolanganligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Barchamizga ma'lumki, Samarqand Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "Yashil shaharlar" dasturiga qo'shilgan yurtimizdagi ilk shahar hisoblanadi. Mazkur dastur doirasida Samarqand shahrida jamoat transporti uchun 155 million AQSh dollariga 350 ta elektrobus xarid qilish hamda ular bilan bog'liq infratuzilmani yaratish bo'yicha loyiha boshlandi. Loyihani dastlabki moliyalashtirish bo'yicha 49 million AQSh dollari bank tomonidan ajratildi va mazkur loyiha 2025-yilda o'z nihoyasiga yetadi hamda Samarqand shahar jamoat transporti to'liq elektrobusga o'tadi. Shu o'rinda Samarqand shahrida elektrobuslar harakatini yo'lga qo'yish ham milliy iqtisodiyotda yashil iqtisodiyot ko'lamini oshirishga qaratilganligini ta'kidlash lozim.

XULOSA

Qayd etishimiz lozimki, boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishini Samarqandda o'tkazish orqali Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va xorijiy mehmonlar O'zbekistondagi yangi biznes loyihalar bilan bevosita tanishish imkoni paydo bo'ldi. Keltirilgan jihatlar asosida ta'kidlashimiz lozimki, o'tkazilgan yillik yig'ilish va biznes-forum Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining mamlakatimizdagi faoliyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Keng ko'lamli xususiyashtirish boshlangan bir davrda bunday xalqaro darajadagi yig'ilishlarning o'tkazilishi davlat mulkini xususiy sektorga samarali asosda o'tkazishga ham imkon beradi. Boshqa tomondan xalqaro moliya institutlarining ilg'or tajribalarini milliy iqtisodiyotga joriy etishda ham ijobiy hamiyat kasb etadi. Shuningdek, agrar sektor, suv xo'jaligini boshqarish, kapital bozorini rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalar rivojida ham Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

4 <https://www.ebrd.com/where-we-are/uzbekistan/data.html>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni
2. James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2017) 1879–1913. <https://www.nber.org/papers/w23757>
3. A. Sh. Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – T. – O'quv qo'llanma
4. A. V. Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O'quv qo'llanma
5. A. S. Azizov. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
6. G. M. Galeeva and E. N. Kadeyeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.
7. www.ebrd.com/where-we-are/uzbekistan/data.html

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

